

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Qo‘qon universiteti direktori

PhD, i.f.n. G‘. Zaxidov

“10” yanvar 2024 yil

**08.00.13 – “MENEJMENT” IXTISOSLIGI BUYICHA
TAYANCH DOKTORANTURAGA KIRUVCHILAR UCHUN
DASTUR**

Qo‘qon – 2024

Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası tomonidan ishlab chiqildi

Tuzuvchilar:

G'.Zaxidov	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası dotsenti (PhD)
Sh.Ruziyev	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası dotsenti (PhD)
A.Islamov	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası dotsenti (PhD)
H.Rasulov	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası mudiri

Taqrizchilar:

M.Najmiddinov	Qo'qon universiteti "Ta'lim" fakulteti dekani
H.Rasulov	Qo'qon universiteti "Xalqaro turizm va iqtisodiyot" kafedrası mudiri

Ushbu dastur Qo'qon universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan
(2023 - yil "12" 11 dagi 2 - sonli bayonnomasi)

Kirish

Mamlakatimizda ilmiy–pedagogik kadrlar tayyorlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"lariga asosan mutaxassislarining kasbiy mahoratini oshirish va malakali iqtisodchi kadrlarni xalqaro andozalar darajasida tayyorlashni taqozo etadi.

Ayniqsa, hozirgi globallashuv davrida menejment sohasidagi xalqaro amaliyot va andozalarni mamlakatimiz ta'lim tizimida qo'llash bo'yicha ishlarni olib borish hozirgi kunning eng dolzarb masalasi bo'lib hisoblanadi.

Ushbu dasturda keltirilgan mavzu va dolzarb masalalar zamonaviy menejment sohasidagi nazariy va amaliy qarashlarning hozirgi holati va chet el tajribasi asosidagi zamonaviy amaliyotni tadqiq etish orqali shakllantirilgan.

Dasturda keltirilgan mavzu va masalalar "Menejment" ixtisosligi bo'yicha fan doktorligiga da'vogarlarning faqatgina shu sohadagi umumiy bilim darajasini aniqlash bilan cheklanmasdan, balki mazkur sohadagi muammolar va ularning yechimlarini topish bo'yicha bilimga ega ekanligini namoyish eta olishini talab etadi.

Dastur 08.00.13 – "Menejment" ixtisosligi pasportiga tegishli bo'lgan barcha masalalarni o'z ichiga qamrab oladi.

Mazkur dastur 08.00.13 – "Menejment" ixtisosligi bo'yicha iqtisod fanlari bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga talabgorlar, doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun mo'ljallangan.

“Menejment” ixtisosligi bo‘yicha mavzular mazmuni

№	Fan bo‘lim mavzulari	Bo‘lim mazmuni
1	“Menejment” faninng predmeti, obyekti va metodi	Menejment fanining mazmuni, mohiyati, fanni o‘qitish maqsadlari, menejment obyekti va subyekti. Menejment fanining umumfalsafiy usullari. Menejment fanining taxlil usullari, tizimli yondashuv, kompleks yondashuv, integratsion yondashuv, iqtisodiy-vaziyatli yondashuv, iqtisodiy-matematik yondashuv, modellashtirish, kuzatish, eksperiment, sotsiologik kuzatish usullari mazmuni. Menejment fanining ijtimoiy-iqtisodiy, xuquqiy, kibernetika va boshqa fanlar bilan o‘zaro aloqalari.
2	Menejment nazariyasining shakllanishi va rivojlanishi.	Boshqarish ta’limotidagi yo‘nalishlar, “Ilmiy menejment” maktabi F.Teylor ta’limotining mohiyati, ilmiy menejment namoyondasi G.Yemerson tamoyillari. “Mumtoz menejment” namoyondasi A.Fayol olg‘a surgan tamoyillar. "Inson munosabatlari” maktabi namoyondasi D.Mak-Gregorning X (iks) va Y (igrik) nazariyasi, “Tizimli yoki zamonaviy menejment” mohiyati, G.Saymon, L.Druker, ye.Deyl nazariyalari.
3	Boshqaruv maqsadi va funksiyalari.	Boshqarish strukturasining mazmuni. Boshqarish organlari, boshqarish bosqichi. Boshqarish strukturasini belgilovchi omillar. Boshqarish strukturalarining tashkiliy turlari, chiziqli (pogonali) struktura, chiziqli shtabli struktura, funksional struktura, chiziqli funksional struktura, dasturli-maqsadli struktura, boshqarishning atritsaviy strukturasini. Boshqarish strukturasining afzalligi va kamchiliklari. Boshqarish strukturasini tashkil qilish usullari, shakllari va takomillashtirish yo‘llari.
4	Boshqaruvning tashkiliy strukturalari	Boshqarish strukturasining mazmuni. Boshqarish organlari, boshqarish bug‘inlari, boshqarish bosqichi. Boshqarish strukturasini belgilovchi omillar. Boshqarish strukturalarining tashkiliy

		turlari, chiziqli (pogonali) struktura, chiziqli shtabli struktura, funksional struktura, chizikli funksional struktura, dasturli-maqсадli struktura, boshqarishning matritsaviy strukturasi. Boshqarish strukturasi afzalligi va kamchiliklari. Boshqarish strukturasi tashkil qilish usullari, shakllari va takomillashtirish yo‘llari.
5	Boshqaruv usullari	Boshqarish usullari mazmuni, boshqaruv obyektini o‘rganish jarayonida qo‘llaniladigan usullar. Funksional tizim osti obyektlarini boshqarishning o‘ziga hos usullari. Boshqarishning tashkiliy ma‘muriy usullari. Boshqarishning tashkiliy ma‘muriy usuli shakllari, farmoyish berish, tashkiliy ta’sir ko‘rsatish. Boshqarishning iqtisodiy usullari. Iqtisodiy usullarning mohiyati va vazifasi. Davlatning iqtisodiyotni boshqarishdagi moliyaviy vositalarining turlari, mohiyati va mazmuni.
6	Menejerni rahbarlik uslubi va boshqaruvdagi o‘rni	Menejer va rahbarlik uslubi tushunchasi. Boshqaruv pog‘onalariga qarab menejrlarning toifalari, yuqori pog‘ona menejerlar, o‘rta pog‘ona menejerlar, quyi pog‘ona menejerlar, menejerning boshqaruv uslubi, menejerning ish uslubi. Rahbarlik uslubini boshqarish metodlari bilan o‘zaro aloqadorligi.
7	Boshqaruv qarorlarni qabul qilish	Boshqaruv qarorlarining mohiyati va ularga kuyiladigan talablar: Boshqaruv qarorlarining unsurlari. Boshqaruv qarorlarining turkumlanishi. Strategik va taktik qarorlari va tashabbusli qarorlari. Qaror qabul qilishda kollegial va konsensus tamoyillari, qaror qabul qilishda “ringi” usulining mohiyati. Qarorlarni ishlab chiqish va Qabul qilish. Qarorni ishlab chiqish bosqichlari., vaziyatni taxlil qilish, mezonlarni tanlash, qaror modulini ishlab chiqish. Qarorlarni ijrosini uyushtirish va ularning bajarilishini nazorat qilish. Qarorlarni bajarish, qarorlarni bajarilishiga rahbarlik qilish.

8	Ishlab chiqarishni boshqarish	Ishlab chiqarishni boshqarishni mazmuni va mohiyati. Ishlab chiqarishni boshqarishni ikki tomoni: ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik tomonlari o‘zaro bog‘liqligi. Ishlab chiqarishni boshqarishda obyekt va subyekt tushunchalari. Ishlab chiqarishni boshqarishda shaxsiy-insoniy va moddiy-ashyoviy omillar mohiyati, ishlab chiqilgan maxsulot sifatini boshqarish, maxsulot sifatiga ta’sir etuvchi omillar sifat menejmenti, sifatni nazorat qilish ikki tomoni: ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-texnik tomonlari o‘zaro bog‘liqligi.
9	Mehnat jamoalarini rejalashtirish va boshqarish	Mehnat jamoalarini boshqarish tushunchasi. Inson resurslarini boshqarish mohiyati. Inson resurslarini boshqarishdagi faoliyat turlari. Xodimlarni boshqarish tizimi. Xodimlarni boshqarish tamoyillari. Inson omilini boshqarish jixatlari
10	Menejmentda motivlashtirish	Motivlashtirish tushunchasi, mazmuni va mohiyati. Ehtiyojlar va ularning turlari. Motivlashtirish vositasida boshqarishning o‘ziga hos xususiyatlari. Motivlashtirish nazariyalari, X(iks) va Y(igrik) nazariyasi, kutish nazariyasi, tozalanish nazariyasi, adolatlilik nazariyasi, ehtiyojlar ustunligi nazariyalarning mazmuni. Motivlashtirish modellari va strategiyalari, motivlashtirish strategiyasini tanlashdagi yondashuvlar. Motivatsiya regulatorlari, motivatsiyaning iqtisodiy va noiqtisodiy omillari.
11	Boshqaruvda axborot va kommunikatsiya	Axborot tizimi tushunchasi va uni boshqarishdagi roli. Boshqarish tizimidagi axborotning aloqalari. Axborotga ko‘yiladigan talablar, teskari aloqa. Axborotlarni o‘ziga hos belgilariga qarab tur va belgilarga ajratish, klasifikatsiya qilish, tasniflash. Axborot tizimlari. Rahbarning axborotlarni qabul qilishi. Foydalanish va qayta uzatish jarayonlari. Kommunikatsiya tushunchasi. Korxona (tashkilot) kommunikatsiyasi, tashqi, ichki kommunikatsiya.
12	Strategik boshqaruv va rejalashtirish	Strategiya va strategik boshqaruv tushunchasi. Strategik boshqaruv usulining vujudga kelishi va

		amaliyotda qo'llanilishi. Strategik rejalashtirish va uning bosqichlari. Korxona taraqqiyotiga ta'sir etuvchi omillar. Strategik rejalashtirish jarayonida korxona faoliyatning taxlili. Strategiyani tanlash va uni amalga oshirishni rejalashtirish. Korxonaning umumiy strategiyasini ishlab chiqish.
13	Korxona qudratini boshqarish	Korxona qudratini boshqarish texnologiyasining bosqichlari. Korxona qudratidan foydalanish dinamikasi va samaradorligining tuzilishini, uning bozordagi ulushini baholash. Korxona qudratini raqobatbardoshligini baholash. Korxonaning iqtisodiy qudrati. Korxona qudratining zaxiralari va yo'qotishlarini tahlil etish. Korxona qudratini raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha strategiya va taktikani tanlash.
14	Tashkilot faoliyatini boshqarish	Tashkilot tushunchasi va uning tavsifi. Tashkilotning yashash davri. Tashkilotning ichki muhit. Tashkilotning tashqi muhiti. Tashkilot ichki va tashqi muhitining o'zgaruvchanligi. Tashkilotning tashkiliy tuzilmasi. Mehnat faoliyatini gorizontal bo'linishi. Mehnatni vertikal taqsimlanishi. To'g'ri chiziqli tuzilma. Boshqaruvning vazifaviy tuzilishi.
15	Boshqaruv mehnatini tashkil etish	Boshqaruv mehnati: ta'rifi, xususiyatlari, turlari. Evristik mehnat. Ma'muriy mehnat. Operator mehnati. Boshqaruv mehnatini ilmiy tashkiliy asoslari. Rahbarni o'zini o'zi boshqarishi. Menejment tomonidan vaqtdan va o'z imkoniyatlaridan ko'proq foydalanish. O'zining sog'lig'ini saqlash va mustahkamlash. Hayotni borishini ongli ravishda boshqarish. Ham ishdagi va ham shaxsiy hayotidagi tashqi holatlarni yengib o'tish. O'zini o'zi boshqarish doirasi. Maqsadlarni qo'yish. Ishlash qobiliyatining o'rtacha statistik o'zgarishlari. Axborot bilan ishlash. Telefondagi so'zlashish madaniyati. Yozishmalarni ratsional olib borish. Menejer faoliyatini rejalashtirish va tashkil qilish qurollari.

16	Xalqaro menejmentning rivojlanishi va modellari	Yapon modeli menejment tizimining o'ziga hos jihatlari. Umrining oxirigacha yollanish tizimi. Kadrlar rotatsiyasi tizimi. Reputatsiya tizimi. Ishchi o'rinlarida tayyorlash tizimi. Mehnatga haq to'lash tizimi. Yaponiya kompaniyalarining boshqarish samaradorligi. AQSH moliya-sanoat guruhlari. Yaponiyaning moliya-sanoat guruhlari. Janubiy Koreyaning moliya-sanoat guruhlari. Rossiyaning moliya-sanoat guruhlari.
----	---	--

TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Normativ-huquqiy xujjatlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2015.
2. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasining “Yoshlar siyosati to'g'risida”gi Qonuni O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2016 y., 37-son, 426- modda; 2017 y., 24-son, 487-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 24.07.2018 y., 03/18/486/1559-son)
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «“Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi to'g'risida»gi 2018 yil 27 iyundagi PF-5466-son Farmoni
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 avgustdagi “O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi qoshida Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash Instituti faoliyatini tashkil etish choralari to'g'risida”gi Qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari tuzilmasini yanada takomillashtirish va boshqaruv xodimlari sonini maqbullashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2010 yil 12 yanvar Qarori.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli “2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlar strategiyasi” to'g'risidagi farmoni.

Asosiy adabiyotlar

10. Авсянников Н.М. Инновационный менеджмент: Учебное пособие. 2-е изд., испр.и доп. / Н.М. Авсянников. — М.: РУДН, 2011. — 189 с
11. Акмаева Р. И. Инновационный менеджмент / Р.И. Акмаева. - М.: Феникс, 2013. - 352 с
12. Алексеев А.А. Инновационный менеджмент: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры / А.А. Алексеев. — Люберцы: Юрайт, 2017. — 247 с.

13. А.А. Томпсон, А.Дж. Стрикленд Стратегическое менеджмент / М., «Банки и биржи», «ЮНИТИ», 1998.
14. Дармилова, Ж.Д. Инновационный менеджмент: Учебное пособие для бакалавров / Ж.Д. Дармилова. — М.: ИТК Дашков и К, 2016. — 168 с.
15. Якобсон А.Я. Инновационный менеджмент: Учебное пособие / А.Я. Якобсон. — М.: Омега-Л, 2015. — 176 с.
16. Виханский О.С., Наумов А. И. Практикум по курсу «Менеджмент». – М.: Экономистъ, 2014. 29-39 б.
17. Ермаков В.П., Макиев З.Г. Менеджмент для студентов вузов. – Изд. 5-е. - Ростов н/Д: Феникс, 2017.
18. Пивоваров С.Э., Тарасевич Л.С. Международный менеджмент: Учебник. 4-е изд.- СПб.: Питер, 2016.
19. Умарходжаева М.Г. Операцион менежмент. Ўқув-қўлланма / Т. ТДИУ, 2017.
20. N.Yo‘ldoshev, S.Yusupov, G‘.Zaxidov. Menejment asoslari va biznes reja. “Fan va texnologiya”, 2016.
21. Основы менеджмента: учебное пособие. / Л.В. Плахова, Т.М. Анурина, С.А. Легостаева и др.- М.: КНОРУС, 2015.

Internet manbalar

1. www.gov.uz
2. www.press-service.uz
3. www.yi.uz
4. www.lex.uz
5. www.jstor.org
6. www.cer.uz